

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XUSUSIY TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Rapiyev Alisher Parda o'g'li

“Raqamli ta'limni rivojlantirish markazi” DM,

boshqarma boshlig'i

a.rapiyev@digital.uz

Annotatsiya: Mazkur tezisda raqamli transformatsiya sharoitida xususiy ta'lim muassasalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda EdTech bozori dinamikasi, innovatsion moliyalashtirish instrumentlari (venchur kapital, natijaga asoslangan moliyalashtirish) va ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilishdagi mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: xususiy ta'lim, raqamli transformatsiya, moliyalashtirish, EdTech, grantlar, subsidiya, PPP, inson kapitali.

Kirish

Bugungi kunda raqamli transformatsiya ta'lim tizimining arxitekturasini tubdan o'zgartirmoqda. Xususiy ta'lim sektori ushbu jarayonda innovatsiyalarni birinchilardan bo'lib joriy etuvchi drayver vazifasini o'tamoqda. Global miqyosda EdTech (Education Technology) bozori 2023-yilda 340 mlrd dollardan oshgan bo'lsa, 2030-yilga kelib bu ko'rsatkichning 600 mlrd dollardan ortishi kutilmoqda. O'zbekistonda nodavlat ta'lim tashkilotlari hamda ularda ishlayotgan va tahsil olayotganlar sonining ortishi ushbu sektorni barqaror moliyaviy mexanizmlar bilan ta'minlash zaruriyatini tug'dirmoqda. Xususan, IT Park rezidentlari soni 369 tadan 3 400 dan ziyodga, IT Park rezidentlarida ishlayotganlar soni 4 500 nafardan 53 000 dan ziyodga, OTMlar soni 66 tadan 145 taga, talabalar soni 30 000 nafardan 120 000 nafarga, xususiy o'quv markazlari soni 5 tadan 490 dan ziyodga, bitiruvchilar soni 340 nafardan 73 600 dan ziyodga oshdi.

Asosiy qism

Raqamli muhitda xususiy ta'limni moliyalashtirish an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, ko'proq diversifikatsiyalashgan vositalarga tayanadi:

1. Soliq va fiskal rag'batlar: Raqamli infratuzilma va o'quv platformalarini yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalarni soliqdan ozod qilish yoki pasaytirilgan stavkalarni qo'llash. Bu tizim allaqachon IT Park tomonidan ta'lim rezidentlariga taqdim etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qaroriga

muvofiq, IT-parkning ta'lim rezidentlariga 7,5% - daromad solig'i; 0% - korporativ soliqlar; 0% - yagona ijtimoiy to'lov; o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni olib kirishda bojxona to'lovlaridan ozod etish kabi imtiyozlar berilgan. Ta'lim rezidentlar 419 ta (2025-yilda) bo'lib, ularda 67 ming nafar yoshlar o'quv kurslarini bitirib, 32 ming nafari ish bilan ta'minlangan, 1,5 ming nafardan ziyodi AT eksport xizmatlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

2. Davlat-xususiy sheriklik (PPP): Ushbu mexanizm orqali davlat moddiy aktivlarni (binolar, yer) taqdim etsa, xususiy sektor raqamli texnologiyalar va metodik kontent bilan ta'lim sifatini ta'minlaydi.

3. Innovatsion moliyaviy instrumentlar:

– Venchur kapitali: Yuqori texnologik ta'lim startaplari uchun tavakkalchilikka asoslangan investitsiyalarni jalb qilish. Raqamli ta'lim sohasidagi yuqori texnologik (EdTech) startaplar ko'pincha dastlabki bosqichda yuqori xarajatli (R&D) va tavakkalchilikka boy bo'ladi. Venchur fondlari bunday loyihalarga nafaqat moliyaviy resurs, balki "aqli kapital" (smart capital) — ya'ni boshqaruv tajribasi, xalqaro aloqalar va strategik yo'nalish ham olib kiradi. Bu esa xususiy ta'lim sub'ektlariga qisqa muddatda global bozorga chiqish va raqamli infratuzilmani (masalan, sun'iy intellektga asoslangan platformalar) yaratish imkonini beradi.

– Performance-based funding: Mablag'larni muassasaning natijadorligi (bitiruvchilarning ishga joylashishi, reytingi)ga qarab ajratish. An'anaviy tizimda muassasalar o'quvchilar soniga (input-based) qarab moliyalashtirilsa, natijaga asoslangan modelda asosiy e'tibor ta'lim sifatining yakuniy ko'rsatkichlariga (outcome-based) qaratiladi. Bunda moliya ajratishda quyidagi KPI (muhim samaradorlik ko'rsatkichlari) inobatga olinadi:

1. Bitiruvchilarning bandligi: Talabalarning o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish darajasi va ish haqining miqdori.

2. Raqamli ko'nikmalar darajasi: Bitiruvchilarning xalqaro standartlar (masalan, IT-sertifikatlar) bo'yicha bilim darajasi.

3. Akademik reyting: Muassasaning milliy va xalqaro reytinglardagi o'ri hamda ilmiy-tadqiqot natijadorligi.

Muhokama va tahlil

Xalqaro tajriba (Janubiy Koreya va Estoniya misolida) shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'limni moliyalashtirishda faqat davlat byudjetiga tayanib qolish samarasiz. O'zbekiston sharoitida asosiy muammolar qatoriga kredit resurslarining qimmatligi va raqamli infratuzilmaning hududlarda bir xil rivojlanmaganligini kiritish mumkin. Biroq, IT-Park rezidentlari uchun berilayotgan imtiyozlar xususiy ta'lim sub'ektlari uchun ham qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan

ochiq subsidiyalanayotgan tarmoqlar qatorida xususiy ta'limning ham borligi e'tiborga loyiq.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sohani rivojlantirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

EdTech loyihalari uchun maqsadli davlat grantlari kvotasini oshirish;

Xususiy o'quv markazlariga ajratilayotgan subsidiyalar yo'nalishini maqsadli tarzda o'qituvchilarni rag'batlantirishga qaratish;

Davlat xususiy sheriklik asosida yangi ochilayotgan o'quv markazlariga bo'sh binolardan samarali foydalanishga imkoniyat yaratish;

Raqamli ta'limga ixtisoslashgan venchur fondlar faoliyatini tartibga solish;

Xususiy ta'lim muassasalarining raqamli o'quv kontentini yaratish xarajatlarini subsidiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. HolonIQ, 2023. Global EdTech Market Outlook 2030. Available at: <https://www.holoniq.com> (Accessed 27 April 2026).
2. OECD, 2021. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing.
3. Raqamli texnologiyalar vazirligi, 2024. O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya strategiyasi. Toshkent.
4. UNESCO, 2022. Guidelines for ICT in education policies and masterplans. Paris: UNESCO.
5. World Bank, 2023. Financing Higher Education in the Digital Age: Challenges and Opportunities. Washington, DC: World Bank.
6. IT Park Uzbekistan. (2023–2026). O'zbekiston IT ekotizimi bo'yicha yillik sharhlar.
7. Edu.digital.uz. (2026). Raqamli ta'limni rivojlantirish markazi veb-sahifasi.
8. Digital.uz. (2026). Raqamli texnologiyalar vazirligi veb-sahifasi.